

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.FM.55.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

VAPAYEV MURODBEK ERGASHOVICH

**METALLAR SIRTIDA NANO O‘LCHAMLI STRUKTURALAR
SHAKLLANISHIGA LAZER PLAZMASI PARAMETRLARINING
TA’SIRI**

01.04.11- Lazer fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктор философии (PhD) физико-
математических наук**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
physical and mathematical sciences**

Vapayev Murodbek Ergashovich

Metallar sirtida nano o'lchamli strukturalar shakllanishiga lazer plazmasi
parametrlarining ta'siri 3

Вапаев Муродбек Эргашович

Влияние параметров лазерной плазмы на формирование
наноразмерных структур на поверхности металлов..... 21

Vapayev Murodbek Ergashovich

Influence of laser plasma parameters on the formation of nanoscale
structures on metal surfaces 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.FM.55.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

VAPAYEV MURODBEK ERGASHOVICH

**METALLAR SIRTIDA NANO O‘LCHAMLI STRUKTURALAR
SHAKLLANISHIGA LAZER PLAZMASI PARAMETRLARINING
TA’SIRI**

01.04.11- Lazer fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.3.PhD/FM772 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar **Davletov Ikram Yusubovich,**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Azamatov Zokir Tohirovich,**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Matnazarov Anvar Rustamovich,
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/29.12.2022.FM.55.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «01» iyun soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11; faks: (99862) 224-67-00

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (**HS**- raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11; faks: (99862) 224-67-00).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «10» may kuni tarqatildi.
(2024-yil «10» may dagi 1 -raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.D. Payziyev,

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi
Ilmiy daraja beruvchi, fizika-matematika fanlari
doktori, dotsent

M.K. Qurbanov,

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

U.K. Sapayev,

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari
doktori

KIRISH (Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kunda fan, texnika va texnologiyalar sohasida, jumladan, qattiq materiallar sirtlarini fizik va kimyoviy usullar yordamida modifikatsiya qilish orqali ularning morfologik, optik va kimyoviy xususiyatlarini o'zgartirishda zamonaviy lazer qurilmalaridan foydalanish yetakchi o'rinda hisoblanadi. Odatda, qattiq jism sirtlarida mikro/nano o'lchamli davriy strukturalarni shakllantirish, yuqori energiya zichligi ($0.1-10 \text{ J/sm}^2$)ga ega bo'lgan lazer nurlanishi ta'sirida metall sirtlarini juda yuqori haroratlargacha ($5000-7000 \text{ K}$) qizdirish va ionlashgan plazma holatiga o'tkazish natijasida nano o'lchamli plazmonik nanozarrachalari ko'rinishida metall sirtlarida qoplama shakllanishi orqali kimyoviy bo'yoqlarsiz rangli tasvir hosil qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada lazer nurlanishi ta'sirida materiallar sirtlarining fizik va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilash uchun lazer nuri hamda plazma parametrlarini aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonda so'nggi vaqtlarda nano o'lchamli strukturalar shakllanishiga lazer nurlanishining asosiy parametrlarining va tashqi atmosferaning ta'siri hamda tahlil qilinayotgan materialning tabiatiga bog'liqligini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishlarda nano o'lchamli strukturalarni shakllantirishda kam energiya talab qiladigan va nisbatan arzon usullardan foydalanib tahlil qilish hamda lazer nurlanishi bilan moddalarga ta'sir qilish orqali yuzaga keladigan fizik jarayonlarni modellashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, lazer plazmasi parametrlarini metallar sirtida nano o'lchamli strukturalar shakllanishiga ta'sirini tadqiq qilish hamda tanlangan har bir metall uchun lazer nurlanishini skanerlash tezligini aniqlash va amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish, shuningdek, zamonaviy energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, «... iqtisodiyotning energiya va resurs sarfini qisqartirish, ... iqtisodiyot, maishiy mahsulotlar ishlab chiqarishning texnologik jarayonlariga innovatsion ishlanma va texnologiyalar joriy etilishini ta'minlash»¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan, metallar sirtida nano o'lchamli strukturalar shakllanishiga lazer plazmasi parametrlarining ta'sirini tadqiq qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, hamda 2021-yil 2-martdagi PQ-5011-sonli "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"dagi qarori, 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-sonli Prezident qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: III. «Energetika, energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozligi rivojlanishi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Metallar sirtida nano o‘lchamli strukturalar shakllanishiga lazer plazmasi parametrlarining ta‘siri bo‘yicha ilmiy masalalarini yechishga horijlik olimlardan jumladan, F. Ruffino,² A.V. Kabashin,³ R. Stoian,⁴ A. Hayat,⁵ B. Seesahai,⁶ B. Verhoff⁷, M. Anderson⁸ va boshqalar o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shgan.

Mamlakatimiz olimlaridan M.R. Bedilov,⁹ R.R. Xaydarov,¹⁰ I.Y. Davletov,¹¹ T.Usmonov, R.A. Ganeev,¹² G.S. Boltaev¹³ va boshqalar lazer plazmasi ko‘p zaryadli ionlarining parametrlarini hamda lazer plazmasi muhitlarida yuqori generatsiya garmonikalarini tadqiq qilishga munosib hissa qo‘shganlar.

Biroq shu bilan birga, metallar sirtida nano o‘lchamli strukturalar shakllanishiga lazer plazmasi parametrlarining ta‘sirini o‘rganish va bu boradagi tadqiqotlarni rivojlantirishga yetarlicha e‘tibor berilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari 2021-80 raqamli “Nanoshit bilan ko‘p qatlamli maydoniy tranzistorda o‘z-o‘zini isitish effektini o‘rganish” (2021–2023) va 2021-88 raqamli “Quyosh elementlarida foydalaniladigan nanotuzilmali gidrofobik va supergidrofobik materiallarni o‘rganish” (2021–2022) mavzularidagi fundamental va amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nano va pikosekund impulsli lazer nurlanishi ta‘sirida metallar yuzasida hosil bo‘lgan plazmaning asosiy parametrlarini turli usullar bilan aniqlash, shuningdek, femtosekund impulsli lazer skanerlash tezligi va plazma parametrlarining metallar yuzasida nano o‘lchamli strukturalar shakllanishiga ta‘sirini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

² Ruffino F. Nanostructuring of Thin Metal Films.... Nanomaterials 2019, 9, 1133.

³ Kabashin A. V. Nanofabrication with Pulsed Lasers. Nanoscale Res Lett (2010) 5:454–463.

⁴ Stoian R. Advances in ultrafast laser structuring of materials... Nanophotonics. 2020 9(16): 4665 – 4688.

⁵ Asma Hayat, The role of laser fluence and ambient environments on fs laser... J. Appl. Phys. 125, 083302 (2019).

⁶ Seesahai B. Plasma temperature measurements in the context of Spectral interference.(2016).

⁷ Verhoff B., Dynamics of femto- and ns laser ablation plumes investigated J. Appl. Phys. 112, 093303 (2012);

⁸ M.Anderson. Surface and microstructure investigation of ps versus fs laser...Surf.&Coat.Tech. 409 126872 (2021).

⁹ Бедиллов М. Р., “Спектры ионов четырехэлементной лазерной плазмы,” Квант. элект., 22, 6, 593–593, 1995.

¹⁰ Khaydarov R. R. “Effect of Optical Radiation on the Properties of ...,” J. Mod. Phys., 05, 12, 1055–1061, 2014.

¹¹ Davletov I. Y. “An Installation for Obtaining Intense Flows of Multiply ..” Inst. Exp. Tech.,45, 708–710, 2002.

¹² T. Usmanov, R Ganeev. Nonlinear-optical parameters of various media Quant. Electr 2007,37(7),60.;

¹³ Boltaev G.S.Creation of azimuthally and radially directed LIPSS.J. of Phys D: Appli.Phys 54 (18), 185109(2021).

10 ns impulsli, 1064 nm to'liqin uzunlikdagi Nd:YAG lazer nurlanishi ta'sirida normal atmosfera sharoitida qattiq agregat holatdagi Si va In elementlari sirtida hosil bo'lgan plazmaning spektrlarini tahlil qilish orqali plazmaning asosiy parametrlari, ya'ni elektronlarning zichligi va temperaturasini aniqlash;

28 ps impulsli, to'liqin uzunligi 1064 nm bo'lgan lazer nurlanishi bilan 50–500 mm/min tezlikda skanerlash jarayonida Al va Cu elementlarining sirtida hosil bo'lgan plazmaning asosiy parametrlarini aniqlash;

qattiq agregat holatdagi niobiy qotishmasi sirtida davomiyligi 28 ps bo'lgan impulsli lazer bilan hosil qilingan plazmaning spektral taqsimotidan niobiy elementining (Nb IV) yuqori zayradli ion o'tish spektral chiziqlari uchun Shtark kengayish koeffitsiyentlarini aniqlash;

impuls davomiyligi 40 fs, to'liqin uzunligi 1030 nm bo'lgan Yb:YAG lazer nurlanishi bilan ta'sir qilish orqali titan va nikel yuzasida turli davr va shakldagi nanostrukturalar hosil qilish;

titan va nikel yuzasida hosil qilingan plazmaning parametrlari va femtosekund impulsli lazer skanerlash tezligi hamda hosil bo'lgan nanostrukturaning o'lchamlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida metallar sirtida nano o'lchamli strukturalar shakllanishiga lazer plazmasi parametrlarining ta'sirini tadqiq etish olingan.

Tadqiqotning predmeti metallar sirtining morfologik tahlili, lazer nurlanishining skanerlash tezligi, shuningdek, lazer plazmasining parametrlarini hisoblashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun tizimli tahlil, tanlangan metallar sirtida plazma hosil qilish va plazmaning optik parametrlarini tadqiq qilishda lazer spektroskopiya usuli, nanostrukturalarning o'lchami hamda xossalarini tahlil qilishda elektron mikroskopiya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

10 ns impulsli, 1064 nm to'liqin uzunlikdagi Nd:YAG lazer nurlanishi ta'sirida normal atmosfera sharoitida qattiq agregat holatdagi Si va In elementlari sirtida hosil bo'lgan plazmaning spektrlarini tahlil qilish orqali plazmaning asosiy parametrlari, ya'ni, elektronlarning zichligi Shtark kengayish usuli yordamida va temperaturasi Boltsman taqsimot usulini qo'llagan holda aniqlangan;

28 ps impulsli, to'liqin uzunligi 1064 nm bo'lgan lazer nurlanishi bilan 50–500 mm/min tezlikda skanerlash jarayonida Al va Cu elementlarining sirtida hosil bo'lgan plazmaning spektrlarini tahlil qilish natijasida, 50-500 mm/min skanerlash tezliklarida Al va Cu plazma spektrlaridagi chiziqlar ustma-ust tushishi hisobga olinib elektronlarning zichligi va temperaturasi aniqlangan;

ilk bor qattiq agregat holatdagi niobiy qotishmasi sirtida davomiyligi 28 ps bo'lgan impulsli lazer bilan hosil qilingan plazmaning spektral taqsimotidan niobiy elementining (Nb IV) yuqori zayradli ion o'tish spektral chiziqlari uchun Shtark kengayish koeffitsiyentlari aniqlangan;

impuls davomiyligi 40 fs, to'liqin uzunligi 1030 nm bo'lgan Yb:YAG lazer nurlanishi ta'sirida titan va nikel yuzasida turli davr va shakldagi nanostrukturalar

hosil qilingan hamda namunalarning optik emissiya spektrlarini tahlil qilish orqali, ular sirtida hosil qilingan plazmaning parametrlari aniqlangan, natijada plazmaning parametrlarini namunalar yuzasida hosil bo'luvchi davriy strukturalarning tabiati bilan bog'liq ekanligi ko'rsatilgan;

titan va nikel yuzasida hosil qilingan plazmaning parametrlari va femtosekund impulsli lazer skanerlash tezligi hamda hosil bo'lgan nanostrukturaning o'lchamlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik olingan, shuningdek, lazer plazmasida erkin elektronlar konsentratsiyasining ortishi bilan plazmonik chastotani boshqarish orqali titan va nikel yuzasida nanostruktura shaklining o'zgarishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

normol atmosfera sharoitida tahlil qilinayotgan metallar sirtida nano o'lchamli strukturalar shakllanish jarayonida plazmaning emission spektrlari olingan;

impulsli lazer nurlanishining turli skanerlash tezliklarida metallar sirtida davriy nano o'lchamli strukturalar hosil qilingan;

lazer plazmasi parametrlarining ta'sirini e'tiborga olish, lazer nurlanishi bilan metallarga sifatli ishlov berish hamda metallarning sirtida davriy nano o'lchamli strukturalar shakllantirish orqali metallarning xususiyatlarini o'zgartirish mumkinligi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda olingan natijalarning ishonchliligi lazer nurlanishi ta'sirida metallarning sirtida nano o'lchamli strukturalar shakllantirishda, plazmaning nurlanish spektrini qayd qilishda optika va lazer fizikasining zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari, yuqori aniqlikdagi zamonaviy qurilmalardan foydalanilganligi, amalga oshirilgan nazariy hisoblashlar va olingan ilmiy natijalarning o'zaro izchilligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lazer nurlanishi ta'sirida normal atmosfera sharoitida qattiq agregat holatdagi elementlar sirtida hosil bo'lgan plazmaning spektrlarini tahlil qilish orqali, plazmaning parametrlarini va niobiy qotishmasidagi yuqori zayradli ion o'tish spektral chiziqlari uchun Shtark kengayish koeffitsiyentlari hamda nano o'lchamli strukturalar shakllanishiga ta'sirini aniqlanganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati lazer nurlanishi bilan ta'sir qilish orqali titan, nikel yuzasida turli davr va shakldagi nanostrukturalar hosil qilinishi hamda plazmaning parametrlarini namunalar yuzasida shakllanuvchi davriy strukturalarning tabiati bilan bog'liq ekanligi, shuningdek, plazma sohasidagi erkin elektronlar konsentratsiyasining ortishi bilan titan, nikel sirtida nanostruktura shaklining o'zgarishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Metallar sirtida nano o'lchamli strukturalar shakllanishiga lazer plazmasi parametrlarining ta'siri bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

lazer nurlanishi ta'sirida metallarning sirtida hosil bo'lgan plazmaning parametrlari elektronlarning zichligi va temperaturasining ta'siri natijalari, ishlab chiqilgan hisoblash algoritmlari "Urganchkormmash" AJda lazer qurilmasi yordamida metallar va murakkab konstruktiv materiallarga ishlov berish

jarayonida qo'llanilgan. Natijada metallarga ishlov berish jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilashga erishilgan hamda yakuniy mahsulot sifati oshgan;

metallarning sirtida hosil qilingan plazmaning emissiya spektrlari, jumladan, niobiy Nb (IV) plazmasining spektral liniya chiziqlari uchun aniqlangan Shtark kengayish koeffitsiyentlari Serbiya Belgrad Astronomiya rasadxonasining 451-03-68/2020-14/200002 tadqiqot loyihasida foydalanilgan. Natijada metallar sirtida nano o'lchamli strukturalarning shakllanish jarayonida hosil bo'lgan plazmaning parametrlari va davr o'lchamlari orasidagi bog'lanishlarni tushuntirishda qo'llanilgan;

metallarning sirtida nanostrukturalarning shakllanishi bilan bog'liq asosiy jarayonlar haqidagi muhim ma'lumotlar Latviya universiteti tadqiqot markazidagi ilmiy loyihada foydalanilgan. Natijada lazer nurlanishi ta'sirida hosil qilingan plazmaning parametrlarini qanday qilib aniqlash va baholash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ja'mi 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 4 tasi maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy ilmiy jurnalda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 94 sahifani tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqotning ishonchliligi hamda tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi va dissertatsiya tuzilishi haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Muammoning zamonaviy talqini: lazer nurining metallarga ta'siri”** deb nomlangan birinchi bobida adabiyotlar tahlili asosida lazer nurlanishining ta'sirida metallarning sirtida nano o'lchamli strukturalarning shakllanish jarayonida hosil bo'lgan plazmaning parametrlarini tadqiq qilish bo'yicha hamda strukturalarning shakllanishida asosan impulsi lazer nurlanishi parametrlarining ta'sirini o'rganishga oid tajribaviy va nazariy tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Metallar yuzasida nano o'lchamli strukturalarni shakllanish jarayonini tadqiq qilish orqali erishilgan yutuqlar va lazer nurlanishi ta'sirida kuzatiladigan effektlar tahlil qilingan. Lekin bugungi kungacha davriy nano o'lchamli strukturalarni metallarning sirtida shakllanishiga lazer plazmasi parametrlarining ta'sirini tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlar soni kam ekanligi e'tiborga olinib dissertatsiya ishining asosiy maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning “**Metallar sirtida nano o‘lchamli strukturalar shakllantirish hamda plazma parametrlarini tadqiq qilishni tajribaviy qurilmalari tavsifi**” deb atalgan ikkinchi bobida impulsli lazer qurilmasi, plazma spektrini qayd qiluvchi qurilma, lazer nurlanishi ta’sirida metallar sirtida hosil qilingan plazma sohasidagi elektronlarning zichligini aniqlashning Shtark kengayish usuli va elektronlarning temperaturasini aniqlash usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Metallar sirtida plazma hosil qilish va plazma parametrlarini tadqiq qilish uchun normal atmosfera sharoitida 50 mm/min va 500 mm/min tezlikda skanerlashdan foydalanib, qattiq agregat holatidagi metallarni to‘lqin uzunligi 1064 nm va impuls davomiyligi 28 ps bo‘lgan Nd:YAG (EKSPLA PL-2231-50) lazeri bilan nurlantirilgan. Yarimo‘tkazgich elementlarini esa 1064 nm to‘lqin uzunlikdagi va 10 ns impulsli Nd:YAG lazeri bilan nurlantirildi va hosil bo‘lgan plazmaning emission parametrlarini (Ocean Optics HR-4000) spektrofotometr yordamida tahlil qilingan (1-rasm). Normal atmosferada metallar sirtida davriy nano o‘lchamli strukturani shakllantirish uchun 40 fs impulsli, 1030 nm to‘lqin uzunlikdagi, 5W quvvatli Yb:YAG lazer bilan turli tezliklarda skanerlash jarayonida hosil bo‘lgan plazmani qayd qiluvchi tajriba optik sxemasidan foydalanilgan (2-rasm).




1-rasm. Metallar sirtida plazma hosil qilish va qayd qilishni tajribaviy optik sxema: Nd:YAG lazeri, *L* – linza, Sample-namuna, *XYZ* – uch o‘qli namuna ushlagich, *C* – Spect HR-4000 nur tolali spektrofotometr, *PC* – Personal kompyuter.




2-rasm. Normal atmosferada metallar sirtida davriy nano o‘lchamli strukturani shakllantirish uchun lazer nurlanishi bilan turli tezliklarda skanerlash jarayonida hosil bo‘lgan plazmani qayd qiluvchi tajribaviy optik sxema.

Yb:YAG lazeri, SH: skanerlash boshi, F-teta fokuslash linzalari, FS: nur tolali spektrofotometr, T-namuna.

Dissertatsiya ishining “**Metallar sirtida hosil bo‘lgan lazer plazmasining parametrlarini tadqiq qilish**” deb nomlangan uchinchi bobida normal atmosfera sharoitida qattiq agregat holatidagi alyuminiy (Al) va mis (Cu) elementlari to‘lqin uzunligi 1064 nm va impuls davomiyligi 28 ps.ni tashkil qilgan Nd:YAG lazeri bilan 50–500 mm/min skanerlash jarayonida hosil bo‘lgan plazmaning parametrlari aniqlangan.



3-rasm. Alyuminiy sirtini 50 mm/min va 500 mm/min tezlikda lazer nurlanishi bilan skanerlash natijasida hosil bo'lgan plazmaning emissiya spektri.



4-rasm. Mis sirtini 28 ps impulsli lazer nurlanishi bilan 50 mm/min tezlikda skanerlash natijasida hosil bo'lgan plazmaning emissiya spektri.

Bunda aluminiy sirtini 50–500 mm/min tezliklarda skanerlash vaqtida hosil bo'lgan Al plazmasi spektr chiziqlari bir xil to'lqin uzunlikda ustma-ust tushdi, intensivliklari esa farq qildi (3-rasm). Olingan plazma spektri tahlili aluminiy elementining (I) bir va (II) ikki zaryadli ion o'tishlari mavjudligini ko'rsatdi. Cu sirtiga lazer nurlanishi bilan 50 mm/min tezlikda skanerlash natijasida hosil bo'lgan plazmaning emissiya spektri mis elementining bir zaryadli ion o'tish chiziqlari mavjudligini ko'rsatdi (4-rasm).

1-jadval

Al(I) va Al(II) ion o'tishli spektr chiziqlari uchun aniqlangan elektron zichliklarining qiymatlari.

<i>Al (I), $\lambda=308,3 \text{ nm}$ FWHM=0,63nm</i>							
1	$T (K)$	2500	5000	10000	20000	40000	80000
	$W \text{ \AA}$	0,132	0,120	0,126	0,143	0,169	0,210
	$n_{e,} (10^{17})cm^{-3}$	2,38	2,62	2,5	2,2	1,86	1,5
<i>Al (I), $\lambda=309,02 \text{ nm}$ FWHM=0,87nm</i>							
2	$W \text{ \AA}$	0,132	0,120	0,126	0,143	0,169	0,210
	$n_{e,} (10^{17})cm^{-3}$	3,29	3,62	3,45	3,04	2,57	2
<i>Al(II), $\lambda=357,92 \text{ nm}$ FWHM=0,26nm</i>							
3	$W \text{ \AA}$	0,475	0,268	0,179	0,130	0,10	0,085
	$n_{e,} (10^{17})cm^{-3}$	0,273	0,485	0,726	1	1,3	1,52
<i>Al(II), $\lambda=358,2 \text{ nm}$ FWHM=0,32nm</i>							
4	$W \text{ \AA}$	0,475	0,268	0,179	0,130	0,10	0,085
	$n_{e,} (10^{17})cm^{-3}$	0,336	0,597	0,893	1,23	1,6	1,88
<i>Al(I), $\lambda=394,6 \text{ nm}$ FWHM=0,42nm</i>							
5	$W \text{ \AA}$	0,01	0,694	0,432	0,255	0,166	0,136
	$n_{e,} (10^{17})cm^{-3}$	0,21	0,3	0,486	0,83	1,26	1,54
<i>Al(I), $\lambda=396,1 \text{ nm}$ FWHM=0,65nm</i>							
6	$W \text{ \AA}$	0,01	0,694	0,432	0,255	0,166	0,136
	$n_{e,} (10^{17})cm^{-3}$	0,325	0,468	0,752	1,27	1,95	2,38

Spektr chiziqlari NIST (National Institute of Standards and Technology) bazasida mavjud chiziqlar bilan solishtirish orqali topildi. Plazma spektrlariga mos Al va Cu ionlari uchun to'lqin uzunliklar va mazkur o'tish chiziqlarining


kengliklari aniqlanib bu kattaliklar Shtark kengayish usuli yordamida plazma tarkibidagi erkin elektronlar zichligini aniqlash imkonini berdi (1,2-jadval). Originlab kompyuter dasturidan foydalanib, plazma spektridagi chiziqlari kengligining yarmi (FWHM-full width at half maximum) Gauss impulsi bilan moslashtirilgan holda aniqlandi.

2-jadval


Mis elementini (I) zaryadli ion o'tishli spektr chizig'idagi aniqlangan erkin elektronlarning zichliklari.

<i>Cu (I), $\lambda=324,75 \text{ nm}$ FWHM= 0,87 nm</i>					
<i>T (K)</i>		5000	10000	20000	30000
1	<i>W Å</i>	0,00320	0,00301	0,00346	0,00398
	<i>n_e, (10¹⁹)cm⁻³</i>	1,35	1,44	1,25	1,09
<i>Cu (I), $\lambda=327,39 \text{ nm}$ FWHM= 0,62 nm</i>					
2	<i>W Å</i>	0,00300	0,00321	0,00330	0,00391
	<i>n_e, (10¹⁸)cm⁻³</i>	10,3	9,65	9,39	7,92
<i>Cu (I), $\lambda=510,55 \text{ nm}$ FWHM= 0,69 nm</i>					
3	<i>W Å</i>	0,0093	0,0102	0,0105	0,0111
	<i>n_e, (10¹⁸)cm⁻³</i>	3,7	3,38	3,28	3,1

Aluminiy sirtida hosil qilingan plazma sohasidagi uyg'ongan erkin elektronlarning temperaturasini Boltsman taqsimot usulidan foydalanib, bir xil ion o'tish mavjud bo'lgan ikkita spektral chiziqning intensivligi nisbati bilan aniqlash mumkin. Bunda alyuminiy spektridan 309,02 nm va 396,1 nm.dagi ikkita spektr chizig'i intensivliklari va boshqa doimiylardan foydalanib plazma sohasidagi erkin elektronlarning temperaturasi 0,65 eV ga teng ekanligi aniqlandi. Ikkita Al (I) 309,02 va Al(I) 391,6 chizig'idagi ion o'tishlar uchun Boltsman taqsimot grafigi hosil qilindi (5-rasm). Aluminiy plazmasi uyg'ongan erkin elektronlarning temperaturasini aniqroq o'lchash uchun 4 ta ion o'tish emissiya (Al (I) 308.2, 309.02, 394.6, 396.1) chiziqlaridan foydalangan holda Boltsman taqsimot grafigi chizildi (6-rasm).



5-rasm. Al (I) 309,02 va Al(I) 396,1 ion o'tishlarda Boltsman taqsimot grafigi.




6-rasm. Al (I) 308.2, 309.02, 394.6, 396.1 - ion o'tishli emissiya liniyalarini Boltsman taqsimot grafigi.

Bunda qiyalik plazma sohasidagi uyg'ongan erkin elektronlarning temperaturasini

bildirib, qiymati Al(I) ion o'tishlar uchun $T=1,56$ eV ga teng ekanligi aniqlandi.


Mis plazmasi sohasidagi uyg'otilgan erkin elektronlarning temperaturasini baholashda lazer nuri quvvat zichligi, atom massa va ko'p zaryadli ionlar soniga bog'liq ravishda aniqlash usulidan foydalanildi. Tajriba uchun tanlangan ps impulsli Nd-YAG lazerining quvvat zichligi $1,8 \cdot 10^{12}$ W/sm² ga, mis elementining atom massasi 63,54 g/mol hamda zaryad karraligi $Z=1$ ga teng.




7-rasm. Mis Cu (I) ion o'tishlarda Boltsman taqsimot grafigi.

aniqlash uchun misning 3 ta ion o'tishli emissiya chiziqlari Cu(I) xarakteristikalaridan foydalanib Boltsman taqsimot grafigi hosil qilindi (7-rasm). Bunda qiyalik plazma sohasidagi uyg'otilgan erkin elektronlarning temperaturasini bildirib, qiymati Cu (I) ion o'tishlar uchun $T=1,42$ eV ga teng ekanligini ko'rsatdi.

Qattiq agregat holatidagi indiy (In) va kremniy (Si) elementini to'lqin uzunligi 1064 nm va impuls davomiyligi 10 ns bo'lgan Nd:YAG lazeri bilan nurlantirildi va hosil bo'lgan plazmaning emission parametrlarini nur tolali optik spektrofotometr yordamida tahlil qilindi. Olingan plazma spektri, tarkibida (In) elementining (I) bir zaryadli (8-rasm), (Si) elementining (I) bir va (II) ikki zaryadli (9-rasm) ion o'tishlari mavjudligini ko'rsatdi.



8-rasm. Indiy plazmasining emission spektri.



9-rasm. Kremniy plazmasining emissiya spektri.

Plazma spektrlarida mos (In) va (Si) spektr chiziqlari va mazkur o'tish liniyalarining kengliklari aniqlanib, bu kattaliklar Shtark kengayish usuli yordamida plazma sohasidagi erkin elektronlarning konsentratsiyalarini aniqlash imkonini berdi (3,4-jadval). Bunda spektr kengligini yarmi (FWHM) Gauss

impulsi bilan moslashtirilgan holda aniqlandi.

3-jadval

Indiy elementini (I) zaryadli ion o‘tishli spektr liniyasidagi aniqlangan elektronlarning zichliklari


<i>In (I), $\lambda=4101.7 \text{ \AA}$</i>						
	<i>T (K)</i>	2500	5000	10000	20000	40000
1	<i>W \AA</i>	0,0047	0,0062	0,0084	0,00108	0,00124
	<i>n_e, (10¹⁸)cm⁻³</i>	5,42	4,1	3	23,6	20
<i>In (I), $\lambda=4511.2 \text{ \AA}$</i>						
2	<i>W \AA</i>	0,0047	0,0062	0,0084	0,00108	0,00124
	<i>n_e, (10¹⁸) cm⁻³</i>	8,72	6,6	4,8	37,9	33

4-jadval


Kremniy elementini (I) va (II) zaryadli ion o‘tishli spektr liniyasidagi aniqlangan erkin elektronlarning zichliklari

<i>Element</i>	<i>Si (I)</i>	<i>Si (I)</i>	<i>Si (II)</i>	<i>Si (II)</i>	<i>Si (II)</i>
λ (nm)	251,61	288,15	412,8	505,59	634,71
FWHM (nm)	2,33	0,85	1,9	3,51	1,28
W (\AA)	0,70	0,54	1,29	1,8	1,2
n (10 ¹⁷ sm ⁻³)	1,66	0,78	0,73	0,97	0,54

Bir xil ion o‘tishli emissiya liniyalari qancha ko‘p bo‘lsa, elektronlarning temperaturasi o‘lchash aniqligi ortadi. Bunda indiy plazmasi sohasidagi uyg‘otilgan erkin elektronlarning temperaturasi aniqroq o‘lchash uchun 3 ta ion o‘tish emissiya liniyalaridan (In (I) 325,6; 410,17; 451,12) va boshqa doimiylardan foydalanib Boltsman taqsimot grafigi hosil qilindi (9-rasm). Grafikda qiyalik plazma sohasidagi uyg‘otilgan erkin elektronlarning temperaturasi bildirib, In (I) ion o‘tishlar uchun $T=3,05 \text{ eV}$ ga teng ekanligi aniqlandi. Boltsman taqsimot usulidan foydalanib Si II zaryadli ion o‘tishni elektron temperaturasi $1,24 \text{ eV}$ ga tengligi aniqlandi va Boltsman taqsimot grafigi hosil qilindi (10-rasm).



9-rasm. Indiy In (I) ion o‘tishlarda Boltsman taqsimot grafigi.




10-rasm. Kremniy Si (II) ion o‘tishlarda Boltsman taqsimot grafigi.

Kremniy plazmasi sohasidagi uyg‘otilgan erkin elektronlarning temperaturasi

lazer nurlanishining quvvat zichligi va elementni atom massasiga bog‘liq ravishda o‘zgarish usulidan foydalanib aniqlandi. Bunda biz foydalangan -ns impulsli Nd-YAG lazerini quvvat zichligi 10^{11} W/sm² ga teng. Kremniy (I) va (II) zaryadli ion o‘tishli plazma sohasidagi uyg‘otilgan erkin elektronlarning temperaturasi Z=1da T=1,89 eV hamda Z=2 da T=2,3 eV ga teng.

Qattiq agregat holatdagi niobiy qotishmasini 1064 nm to‘lqin uzunlikdagi, 28 ps impuls davomiylikdagi Nd:YAG lazeri bilan 20 mm/min tezlikda skanerlash natijasida hosil bo‘lgan plazmaning spektri tahlil qilindi. Olingan plazmaning optik emissiya spektri 11-rasmda keltirilgan.



11-rasm. Niobiy qotishmasini optik emissiya spektri.

Moddalarni ion o‘tishli plazma spektrini tahlil qilish uchun Shtark kengayish ko‘effitsiyentlari (elektron, ion ta’sir parametrlari) nazariy yo‘llar bilan hisoblangan va ma’lumotlar bazasi yaratilgan. Shunga qaramasdan, bugungi kunga kelib, niobiy elementining (Nb IV) yuqori zayradli ion o‘tish spektral chiziqlari uchun Shtark kengayish ko‘effitsiyentlari aniqlanmagan.

Serbiyalik olim M.S. Dimitrijevič bilan hamkorlikda, Modifikatsiyalangan yarim empirik usul yordamida niobiy (Nb IV) plazma spektr chiziqlari uchun Shtark kengayish ko‘effitsiyenti (elektron ta’sir parametri-W) aniqlandi (5-jadval).

5-jadval


Nb IV spektr liniya chiziqlari uchun hisoblangan elektron ta’sir parametrlari va elektronlarning zichliklari

Spektr liniyalari	Konfiguratsiya	Quyi sath	Yuqori sath	W(Å)	FWHM (nm)	$n_e, 10^{17} (cm^{-3})$
318,30	$4d6p3D_3-4d6dD_2$	p=1	d=2	0.78	0,81	0,51
371,17	$4d5d^3G_3 - 4d6p^3F_2$	d=2	p=1	0.537	1,43	1,32
373,15	$4d6p^3P_1-4d6d^3F_2$	d=2	p=1	1.06	0,44	0,2
405,26	$4d5dP_1-4d6p1D_2$	p=1	d=2	0,604	0,55	0,45

Dissertatsiyaning “**Metallar sirtida nano o‘lchamli struktura shakllantirishda femtosekund impulsli lazer plazmasi parametrlarini ta’siri**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida nikel va titan nishonlarining yuzalarida 1030 nm to‘lqin uzunlikli, 50 kHz chastotali va 40 fs impulsli Yb:YAG lazer nurlanishi ta’sirida hosil bo‘lgan davriy tuzilmalarga skanerlash tezligi va plazma parametrlarining ta’sirini tahlili keltirilgan.

Tajribada turli xil skanerlash tezligidan foydalanildi va namuna sirti SEM elektron mikroskop orqali tahlil qilindi. Natijada namuna yuzasida kraterlardan tashkil topgan muntazam LIPSS hosil qilish uchun optimal tezlik topildi. 12-rasmda lazer impulslarini skanerlash tezligi 50 va 500 mm/s da o‘zgartirilgan sirtlarning SEM tasvirlari keltirilgan. Skanerlash tezligi past bo‘lgan holatda,

$1,0 \pm 0,1 \mu\text{m}$ davriylik bilan PFCH hosil qiluvchi Ni yuzasida nano va mikro o'lchamdagi davriy tuzilmalar paydo bo'ldi (12(a) -rasm). Shu bilan birga, biz past skanerlash tezligida YUFCH shakllanishini kuzatdik (12 (b)-rasm). Ti sirtida nano o'lchamli konussimon strukturalar ablyatsiya impulslarining past-50 mm/s skanerlash tezligida kuzatildi (12(c)-rasm). Bunda nano o'lchamli konussimon strukturalarning diametri 500 dan 1000 nm gacha va balandligi 500 nm gacha o'lchamda ekanligi ma'lum bo'ldi. Nano o'lchamli konussimon strukturalar tasodifiy ravishda lazer nurlarining qutblanish yo'nalishida yo'nalar ekan. Oddiy LIPSSlar bilan o'zgartirilgan sirtlarda yorug'lik difraksiyasining tasviri 12(e)-rasmda keltirilgan. Namunalar yuzasi oq nur bilan yoritilgan.




12-rasm. Ablyatsiya impulslarining turli skanerlash tezligida nishonlarning ablyatsiyalangan yuzalarining SEM tasvirlari.

(a) 50 mm/s, (b) 500 mm/s, skanerlash tezligida nikel sirtining SEM tasvirlari, SEM tasvirlari 50 mm/s, (c) va 500 mm/s (d) skanerlash tezligi bilan o'zgartirilgan titan namunasiga mos keladi, (e) LIPSS sirtining oq yorug'lik manbai bilan yoritilishida tarqalgan yorug'likning optik tasvirlari va $2 \mu\text{m}$ o'lchamdagi LIPSSning SEM tasviri.

Odatda, davriyligi $\Lambda_{PFCH} \approx 1,0 \pm 0,1 \mu\text{m}$ bo'lgan LIPSS hosil bo'lganda, difraksiya burchaklari namuna yuzasining normaliga nisbatan 10° dan 40° gacha o'zgarishi mumkin. YUFCH va nano o'lchamli konussimon strukturalar holatida namunalar yuzasida doimiy quyuq ranglar kuzatildi.

Ablyatsiya lazer impulslarining turli skanerlash tezligida Ni nishon sirtida hosil qilingan plazmaning optik emissiya spektrlari 13-rasmda ko'rsatilgan. Elektronlarning zichligi va ablyatsiya impulslarining skanerlash tezligi o'rtasidagi bog'liqlik 13(a)-rasmda keltirilgan. Qiyoslash natijasida plazmaning optik emissiya spektri (OES) liniya chiziqlari va fon yuqori skanerlash tezligida ortganligini ko'rsatdi (13(a)-rasm). Plazma OES spektrlarining fon signali uzluksiz

holatlardan qo‘zg‘aluvchi erkin elektronlarning emissiyasini o‘z ichiga oladi. Plazma parametrlarini hisoblash uchun ionli o‘tishlarning alohida chiziqlari tahlil qilindi.



13-rasm. Abyatsiya lazer impulslarining turli skanerlash tezligida Ni nishon sirtida hosil qilingan plazmaning optik emissiya spektrlari:


(a) Nikel (Ni) nishoniga 1030 nm, 50 kHz chastotali, 40 fs impulsli lazer nurlanishi ta’sirida hosil bo‘lgan plazmaning optik emissiya spektri; (b) Spektrlar 50 mm/s va 500 mm/s; (c) skanerlash tezligida Ni nishon yuzasida LIPSS va konussimon strukturalar hosil bo‘lish jarayonida qayd qilindi. Shtark usuli yordamida elektronlarning zichligini o‘lchash uchun 361,9 nm da Ni I ion o‘tish chizig‘ining profili kengaytirildi.

Ni sirtida hosil qilingan plazmaning emissiya liniya chiziqlari NIST ma’lumotlar bazasi yordamida aniqlandi. Ushbu ma’lumotlar bazasidan 361,9 nm da Ni chizig‘i bir zaryadli Ni (I) ionlariga mos kelishi aniqlandi (13 b va c-rasmlar). Ni plazmasi bir zaryadli ionlardan iborat bo‘lganligi sababli, spektral chiziqlarning bir-birining ustiga chiqish holati yuz bermadi.

Elektronlarning zichligi Shtark kengayish usuli yordamida aniqlandi. Bu usul zaryadlangan zarralarning to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladigan plazmadagi spektral chiziqlarni kengaytirishga asoslangan. Spektral liniya chiziqlarini Lorents funksiyasi bilan moslashtirib, (fitting) yarim maksimalda kenglik topildi va LIPSSning turli shakllarini shakllantirish jarayonida qo‘zg‘atilgan plazma sohasidagi elektronlarning zichligidan keyingi hisoblash uchun foydalanildi.

Elektronlarning temperaturasini hisoblashda lazer nurlanishi quvvat zichligiga va namuna atom massasiga hamda ionlarni zaryad soniga bog‘liqlik usuli yordamida amalga oshirildi. Bu yerda fs impulsli lazer nurlanishining eng yuqori quvvat zichligi $2,0 \times 10^{13}$ Vt sm^{-2} ga teng. Ni namunasi holatida temperatura bir zaryadlangan ionlar uchun $Z=1$ hisoblangan. Ti namunasini esa harorat ikki

marta zaryadlangan ionlar uchun $Z=2$ hisoblangan. Ti sirtida nano o'lchamli strukturalar shakllantirish jarayonida elektronlarning zichligi va temperaturasini miqdoriy hisoblash uchun plazmaning emissiya spektri qayd etildi (14-rasm). Plazma OES spektrlaridan fon signalining pasayishini uyg'ongan erkin elektronlar konsentratsiyasining pasayishi bilan izohlash mumkin. Bu ablyatsiya lazerining pastroq skanerlash tezligida Ti yuzasida nano o'lchamli konussimon strukturalar shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi (14 (a)-rasm). 14(b) va 14(c) rasmlardagi 378,1 nm.ga ega spektral chiziqlar Ti ning ikki zaryadli ionlariga mos keladi. Olingan spektral liniya chiziqlari Ti II ion uchun spektral chiziqning FWHM ni taxmin qilish imkonini berdi. Ti yuzasida hosil qilingan plazma spektrining kengayishi ikki va uch marta zaryadlangan Ti ionlarining bir vaqtning o'zida qo'zg'alishi natijasida yuzaga keldi. 376,1 nm va 378,1 nm to'lqin uzunliklarida kuchli spektral chiziqlarning bir-biri ustiga chiqishi tufayli ikkala spektral chiziqlar chizildi.



14-rasm. Ablyatsiya lazer impulslarining turli skanerlash tezligida Ti nishon sirtida hosil qilingan plazmaning optik emissiya spektrlari:

(a) Titan nishoniga 1030 nm to'lqin uzunlikli, 50 kHz chastotali va 40 fs impulsli lazer nurlanishi ta'sirida hosil qilingan plazmaning optik emissiya spektri. Spektrlar 50 mm/s (b) va 500 mm/s (c) skanerlash impulslarining skanerlash tezligida Ti nishonining yuzasida LIPSS tuzilmalari hosil bo'lish jarayonida qayd qilingan. Shtark usuli yordamida elektron zichligini o'lchash uchun 376,1 nm da Ti II ion o'tish chizig'ining profili kengaytirildi.

Jadval ma'lumotlaridan 376,1 nm to'lqin uzunligida Ti II ion uchun elektron ta'sir parametridan foydalanildi. 6-jadvalda mos ravishda Ni I va Ti II ionlari uchun elektronlarning zichligi va temperaturasining hisoblangan qiymatlari keltirilgan. LIPSSning kuzatilgan shakli va Ti yuzasida nano o'lchamli konussimon strukturalarning paydo bo'lishi Ti nishonining ablyatsiyasi paytida hosil bo'lgan induksiyalangan plazma yoyidagi elektronlarning zichligi bilan

bog‘liq. Plazma parametrlari va ablyatsiyalangan yuzaning morfologiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ablyatsiya impulslarini skanerlash tezligini o‘zgartirish orqali kuzatish mumkin.

6-jadval

Ni va Ti namunalari yuzasida LIPSS tuzilmalari hosil qilish jarayonida olingan OES parametrlari

Elementlar	Skanerlash		E (eV)	W (Å)	$\Delta\lambda$ (nm)	$n_e(10^{18})$ sm^{-3}	$T_e 10^7$ (K)
	tezligi (mm/s)	λ (nm)					
Ni (I)	50	361.926	3.59	0,170	2.4	0,7	2.4
	500						
Ti (II)	50	376.1	2.60	0,247	2.55	1.88	4.6
	500						

Plazma parametrlari, skanerlash tezligi va LIPSS tuzilmalari davriyligining o‘zaro bog‘liqligi impulslar sonining ko‘payishi natijasida ham paydo bo‘lishi mumkin. Plazmonik to‘lqinning chastotasi elektron zichligiga qarab o‘zgaradi $\omega_p(n_e) = \sqrt{n_e e^2 / \epsilon_0 m^*}$ (bu yerda ω_p – plazmonik to‘lqin chastotasi, n_e – elektron zichligi, e – elektronning zaryadi, ϵ_0 -elektr doimiysi, m^* -elektronning massasi. Namuna sirtida hosil qilingan plazma chastotasi ma’lum o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan materiallar uchun zaryad tashuvchisi erkin elektronlarning zichligini o‘zgarishiga bog‘liq. Plazmonik chastotani boshqarish orqali LIPSS davriyligi bilan bog‘liq bo‘lgan sirtiy plazmonik polyariton SPP to‘lqin uzunligini boshqarish mumkin. LIPSS davriyligini SPP to‘lqin uzunligini va lazer nurlanishining tushish burchagini boshqarish orqali o‘zgartiriladi. SPP ning to‘lqin uzunligini materiallar yuzasida hosil bo‘lgan plazma sohasidagi uyg‘otilgan erkin elektronlarning zichligini tahlil qilish orqali baholash mumkin. Ti yuzasida konussimon strukturalarning paydo bo‘lishi, shuningdek, ablyatsiya paytida plazma yoyining elektronlar zichligining kamayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Skanerlash tezligini o‘zgartirish orqali biz nishonlar yuzasidagi impulslar sonini osongina boshqarishimiz mumkin. Femtosekundli lazer yordamida lazer ablyatsiyasining analitik xususiyatlarini o‘rganish va optik emissiya spektroskopiyasi yordamida fs va ns ablyatsiyasi rejimlarini taqqoslash kompozit materiallarning xususiyatlarini tahlil qilish usuli hisoblanadi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi eng muhim natijalarga erishildi:

1. Qattiq agregat holatdagi alyuminiy va mis elementlarini normal atmosfera bosimida to‘lqin uzunligi 1064 nm, impuls davomiyligi 28 ps bo‘lgan Nd: YAG lazer nurlanishi ta’sirida hosil bo‘lgan lazer plazma spektroskopik usulda tadqiq qilindi. Namuna sirtini 50 mm/min va 500 mm/min tezlikda lazer nurlanishi bilan skanerlashdan hosil bo‘lgan plazma spektr intensivliklari farq qilib, bir xil to‘lqin

uzunlikda ustma-ust tushganini ko'rsatdi. Metallar aluminiy va mis sirtini 500 mm/min tezlikda lazer nurlanishi bilan skanerlashdan hosil bo'lgan plazmaning asosiy parametrlari erkin elektronlarning zichligi (Al $n_e \approx 1,8 \cdot 10^{17} \text{sm}^{-3}$, Cu $n_e \approx 3,2 \cdot 10^{18} \text{sm}^{-3}$) va ularning plazma sohasidagi uyg'otilgan erkin elektronlarning temperaturalarini (Al $T_e = 1,56 \text{ eV}$, Cu $T_e = 1,42 \text{ eV}$) aniqlandi.

2. Normal atmosfera sharoitida qattiq agregat holatidagi indiy (In) va kremniy (Si) elementini to'lqin uzunligi 1064 nm va impuls davomiyligi 10 ns bo'lgan Nd:YAG lazeri bilan nurlantirildi va hosil bo'lgan plazmaning emissiya spektrlari tahlil qilindi. Bunda indiy va kremniy sirtida hosil bo'lgan plazma sohasidagi uyg'otilgan erkin elektronlarning zichligi (In $n_e \approx 3,7 \cdot 10^{19} \text{sm}^{-3}$, Si $n_e \approx 10^{17} \text{sm}^{-3}$), elektronlarning temperaturasi (In $T_e = 3,05 \text{ eV}$, Si $T_e = 0,8 \text{ eV}$) aniqlandi.

3. To'lqin uzunligi 1030 nm, impuls davomiyligi 40 fs bo'lgan Yb:YAG lazer nurlanishi bilan ta'sir qilish orqali Ni va Ti nishonlarining yuzalarida PFCH, YUFCH va nano o'lchamli konussimon strukturali tuzilmalari lazerning turli skanerlash tezliklarida shakllantirildi. Namunalarning optik emissiya spektrlarini tahlil qilish orqali namunalar sirtida hosil qilingan plazmaning parametrlari hisoblab chiqildi, bu esa plazmaning parametrlarini namunalar yuzasida hosil bo'luvchi LIPSS tuzilmalarining tabiati bilan bog'liq bo'lishi mumkin ekanligi ko'rsatildi.

4. Titan nishoni yuzasida oddiy LIPSS va nano o'lchamli konussimon strukturalar uchun hosil qilingan plazma parametrlari baholandi. Ti nishonining plazmasida erkin elektronlarning nisbatan past konsentratsiyasida nano o'lchamli konussimon strukturalarning shakllanishi kuzatildi.

5. Ablyatsiyalovchi lazer impulsining past skanerlash tezligida erkin elektronlar zichligi konsentratsiyasining oshishi Ni yuzasida davriyligi $\Lambda_{YUFCH} = 0,5 \pm 0,1 \mu\text{m}$ bo'lgan YUFCH hosil bo'lishiga olib keldi. Olingan natijalar LIPSS strukturalarni nazorat qilishni tushuntiradi va ultratez lazerlar yordamida strukturalangan materiallarning funktsionalligi va yangi tatbiqlariga imkoniyat yaratadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РНД.03/29.12.2022.ФМ.55.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ВАПАЕВ МУРОДБЕК ЭРГАШОВИЧ

**ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ЛАЗЕРНОЙ ПЛАЗМЫ НА
ФОРМИРОВАНИЕ НАНОРАЗМЕРНЫХ СТРУКТУР НА
ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛОВ**

01.04.11- Лазерная физика

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Ургенч – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего Образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2022.3.PhD/FM772

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.urdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Давлетов Икрам Юсубович,
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты: Азаматов Закир Тахирович,
доктор физико-математических наук, профессор
Матназаров Анвар Рустамович,
кандидат физико-математических наук, доцент

Ведущая организация: Ташкентский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «01» июнь 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/29.12.2022.FM.55.07 при Ургенчском государственном университете. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862)224-66-11, факс: (99862) 224-67-00.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована за №715) (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-66-11, факс: (99862) 224-67-00).

Автореферат диссертации разослан «10» май 2024 года.
(протокол рассылки № 1 от «10» май 2024 года).



Ш.Д. Пайзиев,
член комиссии, обязанности председателя
научного совета по присуждению ученой
степени, доктор физико-математических
наук, профессор

М.К. Курбанов,
ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученой степени, кандидат
физико-математических наук, доцент

У.К. Сапаев,
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученой
степени, доктор физико-математических
наук

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мире применение современных лазерных устройств занимает лидирующие позиции в области науки, техники и технологий, в том числе и при модификации поверхностей твердых материалов физическими и химическими методами с целью изменения их морфологических, оптических и химических свойств. В целом образование цветной картины без химических красителей через образование покрытия на поверхности металлов в виде наноразмерных плазмонных наночастиц в результате формирования периодических микро/наноразмерных структур, нагревания поверхности металлов до высоких температур (5000-7000К) под воздействием лазерного излучения высокой плотности (0.1-10 Дж/см²) и перехода их в состояние ионизированной плазмы имеет важное значение. В этом ключе одной из важных задач является определение параметров лазерного излучения и плазмы с целью улучшения физико-химических свойств поверхностей материалов под воздействием лазерного излучения.

В последнее время в мире проводятся научные исследования по изучению влияния основных параметров лазерного излучения и внешней атмосферы, а также природы анализируемого материала на формирование наноразмерных структур. В этих направлениях приоритетными считаются анализ наноразмерных структур с использованием относительно доступных и низкоэнергетических методов, а также исследования по моделированию физических процессов, происходящих при взаимодействии лазерного излучения с веществами. При этом одной из важных задач считается исследование влияния параметров лазерной плазмы на формирование наноразмерных структур на поверхности металлов, а также определение скорости сканирования лазерным излучением для каждого выбранного металла и внедрение её в практику.

В нашей республике реализуется системные меры по снижению потерь и повышению эффективности использования ресурсов, а также по внедрению современных энергосберегающих технологий. В том числе в стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы поставлены задачи «...снижения энерго- и ресурсоемкости экономики, ...обеспечения внедрения инновационных разработок и технологий в технологические процессы производства бытовых товаров, экономики»¹. Реализация указанных задач, в том числе исследование влияния параметров лазерной плазмы на формирование наноразмерных структур на поверхности металлов, имеют важное значение

Представленное диссертационное исследование, в определенной мере, способствует выполнению задач, изложенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии

¹ Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», а также ПП № 5011 от 2-го марта 2021 г. «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию электротехнической промышленности и повышению конкурентоспособности местной продукции», и ПП № 5032 от 19 марта 2021 г. «Меры по повышению качества образования в области физики и развитию научных исследований», где указано «об эффективной организации учебного процесса в области физики, обеспечении интеграции науки и производства...»

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данное исследование проводилось в соответствии с тематикой научно-исследовательских работ по развитию науки и техники республики III. «Развитие энергетики, энергоресурсосбережения, транспорта, машин и оборудования, современной электроники, микроэлектроники, фотоники и электронной техники»

Степень изученности проблемы.

Среди зарубежных ученых в решении научных задач по влиянию параметров лазерной плазмы на формирование наноразмерных структур на поверхности металлов большой вклад внесли Ф. Руффино,² А.В. Кабашинов,³ Р. Стоян,⁴ А. Хаят,⁵ Б. Сисахай,⁶ Б. Верхофф,⁷ М. Андерсон⁸ и другие.

Среди ученых нашей страны М.Р. Бедиллов,⁹ Р.Р. Хайдаров,¹⁰ И.Ю. Давлетов,¹¹ Т. Усманов, Р.А. Ганеев,¹² Г.С. Болтаев¹³ и др. внесли значительный вклад в исследование параметров многозарядных ионов лазерной плазмы и генерации гармоник высокого порядка в лазерно-плазменных средах.

